Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish ma’lumotlardan foydalanishni osonlashtiradi.

Zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida manbalarni avtomatik ravishda tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda.

Bugungi muammolar:

1. Globalizatsiya sharoitida tarixiy manbalar buzib talqin qilinishi.
2. Tarixni mafkuraviy maqsadlarda ishlatish xavfi.

Tarixiy manbashunoslik va tarixshunoslik o‘tmishni anglashning asosiy vositalaridir. Ularning o‘zaro bog‘liqligi tarixiy voqealarni har tomonlama tushunishga va ob’ektiv tarixiy tasvirni yaratishga yordam beradi. Tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish va yozilgan asarlarni tahlil qilish orqali kelgusi avlodlarga o‘tmishning haqqoniy tasvirini yetkazish vazifasi amalga oshiriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov, M. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Fan, 2020.
2. Abdijabborov, Q. Tarixiy manbalarni tadqiq etish usullari. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018.
3. Karimov, R. Tarixshunoslik asoslari. Toshkent: Sharq universiteti, 2021.

BOSHLANG‘ICH SINFLARNI MATEMATIKADAN XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA TAYYORLASH METODIKASI

Ismatillayeva Yodgora Abduvahob qizi
Turan International University

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari, TIMSS xalqaro baholash dasturining ahamiyati, unga oid testlar tahlili, TIMSS xalqaro baholash dasturiga o‘quvchilarni qanday tayyorlash va testlar tuzish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash dasturlari, TIMSS, PIRLS, PISA, TALIS, test, mantiqiy fikrlash.

Bugungi kunda ta’lim muammosining dolzarbligi eng muhim masalalardan biri sanalib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “Boshlang‘ich ta’lim-ta’lim taraqqiyotining asosiy xarakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e’tirof etildi. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Rossiya kabi davlatlarda o‘tkazilgan ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar va erishilgan natijalar mazkur ilmiy izlanish uchun o‘ziga xos metodologik asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, ta’lim sohasida erishilgan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, eng avvalo, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish, matematika va tabiiy fanlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bu borada o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining boshlang‘ich sinfdan boshlab aniqlash va rivojlantirish maqsadida PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study), PISA – (The Programme for International Student Assessment), TIMMS – (Trends in International Mathematics and Science Study) dasturidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik bilimlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar matematik bilimlarini faqat nazariy emas balki amaliyotda ya’ni hayotda to‘g;ri qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi. Hozirki kunda xalqaro baholash dasturlarini chuqur o‘rganish va to‘g‘ri qo‘llash dolzarb mavzu hisoblanadi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Ismatillayeva Yodgora Abduvahob qizi (2024). Boshlang‘ich sinflarni matematikadan xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash metodikasi. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1170

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahami yatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko‘proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta’limni qiyosiy o‘rganish sohasida yetakchi tashkilot bo‘lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta’lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadida ta’lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta’lim jarayonlari va natijalarini ko‘rib chiqib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi o‘zaro bog‘liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta’lim sohasiga oid ko‘plab mavzular bo‘yicha o‘ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o‘tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o‘qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta’limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo‘nalishlarda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, umuman olganda ta’lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?

- **PISA** – 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.
- **PIRLS** – boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash;
- **TIMSS** – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;
- **TALIS** – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish;

Yuqoridagi baholash dasturlaridan TIMSS xalqaro baholash dasturiga to‘xtaladigan bo‘lsak, TIMSS dasturi o‘zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo‘lib, 2019-yilga qadar har to‘rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015, 2019 va 2023-yillarda tashkil etib kelindi. Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham ko‘rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko‘ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta’lim tizimi eng yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabdamatematika va tabiiy fanlarni o‘qitish sifatining xalqaro monitoringi bo‘lib, ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o‘ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o‘quv jarayoni, o‘quv muassasasi imkoniyati, o‘qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchilarning oilaviy muhiti bilan bog‘liq omillarni o‘rganadi. Ko‘rsatib o‘tilgan omillar matematika fanlarini o‘zlashtirish holatini ko‘rsatishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining ta’lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularining bilim va ko‘nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo‘lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini

solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o‘quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo‘sinda maktabning boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.


Taqdqiqot o‘tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta’limning mazmun mohiyati va o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasi, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ularning oilalari bilan bog‘liq omillar qo‘shimcha o‘rganiladi. Xalqaro testga qo‘shimcha bo‘lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma’muriyati, o‘quvchilar va o‘qituvchilar so‘rovnomadan o‘tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturlariga o‘quvchilarni tayyorlashda TIMSS daftarchalaridan foydalanamiz va undagi topshiriqlar mohiyatini yaxshilab tushuntirib berish lozim.

4-sinf o‘quvchilari uchun matematika fanidan TIMSS test topshiriqlari namunalari.

M4_01

Azizada raqamli kartochkalar bor



U kartochkalar yordamida qaysi eng kichik uch xonali sonni ko‘rsata oladi?

U har bir kartochkadan faqat bir marta foydalanishi mumkin.

Bu topshiriqni yechishda eng kichik uch xonali son deyilgani uchun yuzlar xonasiga eng kichik sonni olamiz ya’ni 1, o‘nlar xonasiga undan keying kichik son 2 ni olamiz, birlar xonasiga esa keyingi kichik son 3 ni olamiz. Natijada 123 soni hosil bo‘ladi.

Javob:123

M4_02

9*22 ga eng yaqin bo‘lgan javob qaysi?

A)5*20 B)5*25 C)10*20 D)10*25

Bu topshiriqda avval 9 ga yaqin sonni qaraymiz. 5 va 10 dan 9 ga eng yaqini 10 hisoblanadi. Demak C yoki D javobdan biri. Endi 20 va 25 dan qaysi biri 22 ga yaqin ekanini aniqlab olamiz. Bu albatta 20. Demak javob: 10*20

Javob:C

M4_45

Aziza rasmda ko‘rsatilgan muzqaymoqlarni sotib oldi.



Narxi 22 zed

Nozima quyidagicha muzqaymoq sotib oldi




Narxi 14 zed



A) Jami muzqaymoqning narxi qancha?
Yechish: 22-14=8
Javob:8 zed



B) Muzqaymoqning narxi qancha?
Yechish: 14-8=6
6:2=3
Javob:3 zed
M4_46



Yuqorida ko‘rsatilgan rasmdagi figura to‘g‘ri to‘rtburchak va 3 ta teng tomonlarga ega bo‘lgan uchburchakdan yasalgan. AB tomonning uzunligi necha cm bo‘ladi?


Yechish: to‘g‘ri to‘rtburchakning enining uzunligi, uchburchakning tomoni uzunligiga teng. Demak AB tomon uzunligi 8 cm ga teng.

Javob: 8 cm


Yuqoridagi keltirilgan namunalar asosida o‘quvchilarni tayyorlab boriladi. TIMSS test kitobalari 4 ta, o‘quvchilar ularni tugatgandan so‘ng shunga o‘xshash testlarni tuzib o‘quvchilarga taqdim etib borish lozim.

Misol uchun:

1. Kapalakka simmetriya o‘qini qanday o‘tkazish mumkin?




Javob:




2. 4683 sonini 1000 lar xonasigacha yaxlitlang.
A)4600 B)5000 C)4680 D)4000
Javob: B

3. To‘g‘ri to‘rtburchakning $\frac{3}{4}$ qismini bo‘yang.



Javob:



Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilarni matematik bilimlarini yanada mustahkamlash mumkin. Ayniqsa hozirgi darsliklarimiz o‘quvchilarni mantiqiy savodxonligini shakllantirishga katta yordam beradi.

Xulosa. TIMSS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan tayyorgarlik darajasini o‘rganish va aniqlash uchun olinadi. Ushbu xalqaro baholash dasturida taqdim etiladigan testlarning qiyinlik va osonlik darajalari ham belgilab qo‘yilgan. Ushbu bobda asosan TIMSS xalqaro baholash dasturiga e’tibor qaratildi. Chunki Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda asosan TIMSS dasturi turadi. TIMSS xalqaro baholash dasturi boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarining bilimini aniqlashga qaratilgan.

O‘zbekiston ham rivojlangan mamlakatlar kabi xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni egallashi uchun o‘quvchilarni matematik bilimlarini chuqurlashtirish lozim. Buning uchun TIMSS testlariga puxt tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.//http://lex.uz/pages/.

2. Martin, M.O., Mullis, I.V.S., Foy, P., & Arora, A. (2012). Creating and

interpreting the TIMSS and PIRLS 2011 context questionnaire scales. In M.O. Martin & I.V.S Mullis (Eds.), Methods and Procedures in TIMSS and PIRLS 2011 (pp.1— 11).

3. Asqarova M.A. Xalqaro baholash dasturi. Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2020.

4. TIMSS xalqaro tadqiqotining mamlakatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati

STRATEGIES FOR DEVELOPING BUSINESS TOURISM IN UZBEKISTAN USING DIGITAL MARKETING AND EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Gulmira Shavkatovna Isokova
PhD student of Bukhara State University, Uzbekistan
isokovagulmira@gmail.com

Abstract. This study examines global best practices for advancing business tourism through the integration of digital marketing and educational technologies, offering practical recommendations tailored to Uzbekistan. By analyzing strategies employed by ten countries, including the implementation of AI-driven chatbots, augmented reality (AR), and personalized marketing approaches, the research underscores their relevance and adaptability to Uzbekistan's distinctive business tourism context. The paper highlights the critical role of advanced digital tools, cashless payment systems, and virtual reality (VR)-based training programs in enhancing service quality, attracting international clientele, and bolstering Uzbekistan's competitiveness on the global stage in the domain of business tourism.

Keywords: business tourism, digital marketing, educational technologies, augmented reality (AR), artificial intelligence (AI), Uzbekistan, cashless payments, virtual reality (VR), international practices, tourism development.

Introduction

Uzbekistan's abundant cultural heritage and strategic geographic position establish it as a compelling prospect for business tourism in Central Asia. The incorporation of digital marketing and educational technologies presents unparalleled opportunities to advance and refine business tourism services within the region. This research emphasizes the development of strategic approaches for leveraging digital tools and educational technologies to fortify Uzbekistan’s business tourism industry, thereby fostering economic growth and enhancing the nation’s international profile and competitiveness.

Problem Statement and Research Methodology

Problem Statement:

Despite its significant potential, Uzbekistan's business tourism sector encounters notable challenges in effectively promoting its services and delivering a high-quality customer experience. The limited adoption of advanced marketing technologies and the inadequacy of comprehensive training programs for personnel represent substantial barriers to the industry's growth. Addressing these shortcomings necessitates the implementation of innovative strategies and the integration of cutting-edge solutions to bridge these critical gaps.

Research Methodology:

The study employs a mixed-methods approach such as literature review, comparative analysis and statistical analysis.

Findings

1. The Role of Digital Marketing: